

5-Iyul, 2026-yil

NEMIS VA O‘ZBEK CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIGIDA GASTRONOMIK
KOD: BAYRAMONA REALIYALAR LEKSIKASINING
LINGVOKULTUROLOGIK TABIATI

Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi

3-kurs 23.113-guruh talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>

E-mail: nozimaxon57@gmail.com

Annotatsiya *Ushbu maqolada nemis va o‘zbek chog‘ishtirma tilshunosligi kontekstida milliy-taqvimiy bayramlar bilan bog‘liq bo‘lgan gastronomik kod va madaniy realiyalar leksikasi lingvokulturologik jihatdan tadqiq etilgan. Izlanishning maqsadi - ikki xalqning bayramona taomnomalarini ifodalovchi til birliklarining semantik, ramziy va konnotativ xususiyatlarini ochib berish hamda ularning madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligini chog‘ishtirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida o‘zbek madaniyatidagi Navro‘z, Ramazon va Qurbon hayiti hamda nemis madaniyatidagi Rojdestvo (Weihnachten) va Pasxa (Ostern) kabi an‘anaviy tantanalarga xos gastronomik leksika tahlil qilindi. Olingan natijalar bayramona taom nomlari shunchaki utilitar (iste‘mol) vazifasini bajarmasdan, balki xalqlarning milliy mentaliteti, mifologik dunyoqarashi va etnik o‘zligini aks ettiruvchi lisoniy belgilar ekanligini ko‘rsatdi. Maqola xulosalari qiyosiy leksikologiya, lingvokulturologiya va madaniyatlararo muloqot amaliyoti uchun ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *gastronomik kod, bayramona leksika, madaniy realiyalar, lingvokulturologiya, nemis tili, o‘zbek tili, chog‘ishtirma tilshunoslik, dunyoning lisoniy manzarasi.*

ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ КОД В НЕМЕЦКО-УЗБЕКСКОМ
СОПОСТАВИТЕЛЬНОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ:
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ЛЕКСИКИ ПРАЗДНИЧНЫХ
РЕАЛИЙ

Аннотация *В данной статье в контексте немецко-узбекского сопоставительного языкознания лингвокультурологически исследуется гастрономический код и лексика культурных реалий, связанных с национально-календарными праздниками. Цель исследования заключается в раскрытии семантических, символических и коннотативных особенностей языковых единиц, выражающих праздничное меню двух народов, а также в сопоставлении их связи с культурными ценностями. В ходе исследования был проанализирован*

5-Iyul, 2026-yil

гастрономический лексикон, характерный для таких традиционных торжеств, как Навруз, Рамазан и Курбан хаит в узбекской культуре, а также Рождество (Weihnachten) и Пасха (Ostern) в немецкой культуре. Полученные результаты показали, что названия праздничных блюд выполняют не просто утилитарную функцию, а являются языковыми знаками, отражающими национальный менталитет, мифологическое мировоззрение и этническую идентичность народов. Выводы статьи служат научно-теоретическим источником для сравнительной лексикологии, лингвокультурологии и практики межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *гастрономический код, праздничная лексика, культурные реалии, лингвокультурология, немецкий язык, узбекский язык, сопоставительное языкознание, языковая картина мира.*

GASTRONOMIC CODE IN GERMAN-UZBEK COMPARATIVE LINGUISTICS: LINGUACULTURAL NATURE OF FESTIVE REALIA VOCABULARY

Abstract *This article investigates the gastronomic code and the lexicon of cultural realia associated with national calendar holidays from a linguacultural perspective within the framework of German-Uzbek comparative linguistics. The objective of the research is to reveal the semantic, symbolic, and connotative characteristics of linguistic units expressing the festive menus of the two societies and to compare their correlation with cultural values. In the course of the study, the gastronomic vocabulary characteristic of traditional celebrations such as Navruz, Ramadan, and Eid al-Adha in Uzbek culture, as well as Christmas (Weihnachten) and Easter (Ostern) in German culture, was systematically analyzed. The findings indicate that the names of festive dishes perform not merely an utilitarian function, but act as linguistic signs reflecting national mentality, mythological worldview, and ethnic identity. The conclusions of the article provide a theoretical and scientific source for comparative lexicology, linguacultural studies, and the practice of intercultural communication.*

Keywords: *gastronomic code, festive lexicon, cultural realia, linguacultural studies, German language, Uzbek language, comparative linguistics, linguistic picture of the world.*

KIRISH

Bugungi zamonaviy tilshunoslik paradigmalarida til va madaniyatning o‘zaro uzviy aloqasini tadqiq etish, xususan, tillarning dunyoni lisoniy aks ettirishdagi o‘ziga xosliklarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, har bir etnos o‘zining ko‘pasrlilik tarixiy tajribasi, turmush tarzi, diniy va mifologik qarashlarini til tizimida muhrlaydi. Insoniyat madaniyatsimon faoliyatining eng qadimgi va fundamental qismlaridan birini esa ozuqa madaniyati hamda uning an’anaviy tantanalardagi o‘rni tashkil etadi. Tilshunoslikda ushbu hodisa "gastronomik kod"

5-Iyul, 2026-yil

tushunchasi ostida o‘rganilib, u jamiyatning lisoniy ongini va etnomadaniy tafakkurini ochib beruvchi eng boy manbalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi nemis va o‘zbek xalqlarining milliy-taqvimiy bayramlariga xos bo‘lgan taomnomalar leksikasini hamda bayramona realiyalarini chog‘ishtirma-lingvokultrologik nuqtai nazardan tizimli tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. O‘zbek madaniyatining o‘zagini tashkil etuvchi Navro‘z sayli, Ramazon va Qurbon hayiti kabi marosimlar, shuningdek, nemis milliy madaniyatining asosi hisoblangan Rojdestvo (Weihnachten) va Pasxa (Ostern) tantanalari tildagi o‘ziga xos gastronomik terminlar tizimini yuzaga keltirgan. Mazkur leksik birliklar va realiyalar shunchaki taom turlarini nomlab qolmay, balki chuqur ramziy, mifologik va konnotativ ma’nolarni o‘zida tashidi.

Masalan, o‘zbek tilidagi sumalak, halim, ko‘k somsa, go‘ja kabi birliklarning semantikasi yangilanish va tabiat uyg‘onishi g‘oyalari bilan bog‘lansa, nemis tilidagi Stollen (shirin non), Lebkuchen (zanjabilli pechenye) yoki Osterbrot (Pasxa noni) leksemalari xristianlik madaniyati va qishki/bahoriy sikl mifologiyasi bilan bevosita aloqadordir. Ushbu maqolaning maqsadi nemis va o‘zbek chog‘ishtirma tilshunosligi doirasida bayramona gastronomik leksikaning lisoniy tabiati va uning etnomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida har ikki tildagi bayram taomlari nomlari, ularga oid tayyor iboralar va lingvistik realiyalar tanlab olindi. Ishning ilmiy-nazariy poydevori V.A. Maslova, V.N. Teliya kabi dunyo lingvokultrologlari hamda N. Mahmudov va A. Mamatov kabi o‘zbek tilshunos olimlarining madaniy kodlar va milliy konseptlar haqidagi nazariy qarashlariga tayanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Lingvokultrologiyada madaniy kod insonning borliqni idrok etish usullarini ifodalovchi belgi tizimi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gastronomik kod ana shunday madaniy kodlarning eng qadimiy va universal turlaridan biri bo‘lib, u xalqning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, xo‘jalik yuritish an‘analari hamda milliy qadriyatlarini til birliklari orqali aks ettiradi. Ovqat nomlari, taom tayyorlash jarayoni, dasturxon bilan bog‘liq marosimlar va ular asosida shakllangan frazeologik birliklar xalqning etnomadaniy xotirasini saqlovchi vosita hisoblanadi. V.A. Maslovaning ta’kidlashicha, lingvokultrologiya til birliklari orqali madaniyatni rekonstruksiya qilishni maqsad qiladi va aynan realiyalar, ramzlar hamda konseptlar milliy tafakkurning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Gastronomik birliklar esa madaniyatning moddiy va ma’naviy qatlamlarini birlashtiruvchi konseptual tizimning tarkibiy qismi sanaladi. V.N. Teliya esa frazeologiya va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlar ekan, ovqat bilan bog‘liq birliklar xalqning qadriyatlar tizimi va baholash mezonlarini ifodalashini qayd etadi.

Shu sababli gastronomik leksika faqat nominativ vazifani emas, balki aksariyat hollarda ramziy va emotsional-konnotativ vazifani ham bajaradi. O‘zbek tilshunosligida ham madaniy kod masalasi N. Mahmudov tomonidan til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi nuqtai nazaridan nazariy tahlil qilingan. Olimning fikriga ko‘ra, milliy til xalqning madaniy

xotirasi hisoblanadi va unda xalqning qadriyatlari, urf-odatları hamda dunyoqarashi mujassam bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy bayramlari tarkibida gastronomik realiyalar alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa Navro'z bayrami bahorning kirib kelishi, tabiatning uyg'onishi va yangi hayot boshlanishining ramzi sifatida talqin qilinadi. Ushbu bayram bilan bog'liq sumalak, halim, ko'k somsa, go'ja kabi taomlar nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki qadimiy mifologik qarashlarning davomchisi hisoblanadi. Masalan, sumalak konsepti o'zbek madaniyatida unumdorlik, baraka, birlik va sabr timsolidir. Uni jamoa bo'lib tayyorlash jarayonida aytiladigan qo'shiqlar, tilaklar va marosimlar gastronomik kodning verbal hamda neverbal komponentlarini hosil qiladi. Ramazon hayitida tayyorlanadigan qatlama, chak-chak, bo'g'irsoq, palov kabi taomlar esa mehmondo'stlik, saxovat va bag'rikenglik konseptlari bilan bog'liq. Qurbon hayitida tayyorlanadigan go'shtli taomlar diniy qadriyatlar bilan chambarchas aloqador bo'lib, ular qurbonlik, ehson va ijtimoiy birdamlik g'oyalarini ifodalaydi. A. Mamatov etnografik leksikani tahlil qilar ekan, marosim bilan bog'liq leksik birliklar milliy mentalitetni aks ettiruvchi eng muhim qatlamlardan biri ekanligini qayd etadi.

Nemis madaniyatida gastronomik kod xristian diniy an'analari bilan chambarchas bog'langan. Ayniqsa Weihnachten va Ostern bayramlari o'ziga xos gastronomik leksik tizimni shakllantirgan. Weihnachten bayramining asosiy ramzlari Stollen, Lebkuchen, Glühwein, Weihnachtsgans hisoblanadi. "Stollen" nemis madaniyatida Iso payg'ambarning beshigini ifodalovchi ramziy non sifatida talqin qilinadi. Uning ustiga sepilgan shakar kukuni qorga o'xshatiladi va poklik timsoli hisoblanadi. "Lebkuchen" esa o'rta asrlardan buyon Rojdestvo bilan bog'liq shirinlik sifatida qo'llanilib kelmoqda. Pasxa bayramida esa Osterbrot, Osterrei, Osterlamm kabi gastronomik birliklar diniy ramz vazifasini bajaradi. Nemis lingvokulturologiyasida ushbu birliklar diniy konseptlar, oilaviy qadriyatlar va tarixiy xotiraning lisoniy ifodasi sifatida qaraladi. H.J. Teuchert va U. Ammonlarning tadqiqotlarida nemis bayramlari leksikasi xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida tavsiflangan.

NEMIS VA O'ZBEK GASTRONOMIK KODLARINING QIYOSIY TAHLILI

Har ikki xalq gastronomik kodida umumiy va differensial jihatlar kuzatiladi:

O'zbek tili	Nemis tili	Lingvokulturologik ma'nosi
Sumalak	Osterbrot	Yangilanish, yangi hayot
Halim	Weihnachtsgans	Bayram, birlik
Palov	Stollen	Mehmondo'stlik, farovonlik
Bo'g'irsoq	Lebkuchen	Saxovat va oilaviy qadriyat

Qiyoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek gastronomik kodida tabiat, hosildorlik va jamoaviylik konseptlari ustunlik qilsa, nemis gastronomik kodida xristian diniy ramzlari hamda oilaviy qadriyatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Biroq ikkala madaniyatda ham bayram taomlari xalqning tarixiy xotirasini, milliy identifikatsiyasini va madaniy merosini ifodalovchi muhim lingvokulturologik belgilar hisoblanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida nemis va o‘zbek tillaridagi bayramona gastronomik realiyalar lingvokultrologik jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda ham gastronomik leksika oddiy nominativ vazifani emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari va etnomadaniy qadriyatlarini ifodalovchi madaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat lingvokultrologiyada til birliklari madaniy axborotni saqllovchi va avloddan avlodga uzatuvchi vosita ekanligi haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi sumalak, halim, ko‘k somsa, palov kabi gastronomik birliklar Navro‘z va diniy bayramlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular hosildorlik, birlik, saxovat va mehmondo‘stlik konseptlarini ifodalaydi. Ayniqsa sumalak leksemasi nafaqat bahor taomi, balki yangilanish, baraka va jamoaviy birdamlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ushbu birliklar o‘zbek xalqining lisoniy manzarasida milliy konsept maqomini egallaydi.

Nemis tilidagi Stollen, Lebkuchen, Osterbrot, Weihnachtsgans kabi gastronomik birliklar esa asosan xristian diniy an‘analari bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ularning semantik tarkibida diniy ramzlar, oilaviy qadriyatlar va tarixiy an‘analar mujassamlashgan. Masalan, Stollen Rojdestvo bayramining ajralmas ramzi sifatida poklik va muqaddaslikni ifodalasa, Osterbrot Pasxa bayramida yangi hayot va tirilish g‘oyalarini aks ettiradi. Qiyoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek gastronomik kodida tabiat sikli va hosildorlik konsepti ustunlik qilsa, nemis gastronomik kodida diniy-mifologik konseptlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, ikkala madaniyatda ham bayram taomlari oila, jamoa va milliy birlikni mustahkamlovchi muhim madaniy belgi vazifasini bajaradi. Bu esa gastronomik leksikaning universal va milliy xususiyatlari o‘zaro uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis tillaridagi gastronomik birliklarni o‘rganish madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimashunoslik hamda qiyosiy tilshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, nemis va o‘zbek tillaridagi bayramona gastronomik leksika nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini nomlash vazifasini bajaradi, balki har ikki xalqning milliy madaniyati, diniy e‘tiqodi va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi muhim lingvokultrologik birliklar hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gastronomik kodning shakllanishida geografik muhit, diniy an‘analar, xalqning turmush tarzi hamda etnik qadriyatlar muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil davomida o‘zbek va nemis tillaridagi bayram taomlari o‘rtasida umumiy hamda o‘ziga xos jihatlar aniqlandi. Umumiy jihati shundaki, har ikki madaniyatda ham bayram taomlari xalqni birlashtirish, oila va jamiyat birdamligini mustahkamlash, ezgulik va farovonlik timsoli sifatida talqin etiladi. Biroq ularning lingvokultrologik mazmunida sezilarli farqlar ham mavjud. O‘zbek gastronomik kodida Navro‘z, Ramazon va Qurbon hayiti bilan bog‘liq taomlar asosan tabiat uyg‘onishi, hosildorlik, saxovat, mehmondo‘stlik va jamoaviylik g‘oyalarini ifodalasa, nemis gastronomik kodida Rojdestvo va Pasxa bayramlariga oid gastronomik birliklar xristian diniy an‘analari, oilaviy qadriyatlar

5-Iyul, 2026-yil

hamda diniy ramzlar bilan chambarchas bog‘langan. Shuningdek, tadqiqot gastronomik leksikaning tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Ayrim milliy taom nomlari boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent orqali emas, balki transliteratsiya yoki lingvokulturologik izoh yordamida tarjima qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Chunki bunday birliklarda xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va milliy o‘zligi mujassam bo‘ladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, gastronomik kodning shakllanishida geografik muhit, diniy an‘analari, xalqning turmush tarzi hamda etnik qadriyatlari muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, gastronomik kodlarni qiyoslash ikki xalq dunyoqarashidagi umumiylik va milliy o‘ziga xos differensial jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijasida nemis va o‘zbek tillaridagi bayramona gastronomik leksikaning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, gastronomik kod har ikki xalqning milliy madaniyati va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim madaniy-belgilar tizimidir. O‘zbek tilidagi bayram taomlari ko‘proq tabiat, hosildorlik, saxovat va jamoaviylik konseptlarini ifodalasa, nemis tilidagi gastronomik birliklar xristian diniy an‘analari, oilaviy qadriyatlar va diniy ramzlar bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, har ikki madaniyatda bayram taomlari milliy o‘zlikni anglash, avlodlar o‘rtasidagi madaniy merosni saqlash va jamiyat birdamligini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari gastronomik leksikani qiyosiy va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, etnoliugvistika hamda zamonaviy qiyosiy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda boshqa bayramlar, marosimlar va gastronomik konseptlarni qamrab olgan kengroq tadqiqotlar olib borish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 32–35.
2. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 217–220.
3. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – С. 12–18.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: РУДН, 2008. – С. 32–40.
5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012. – B. 56–65.
6. Mamatov A. O‘zbek tili etnografik leksikasi. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 84–102.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – B. 74–89.

5-Iyul, 2026-yil

8. Ammon U. Die deutsche Sprache in Deutschland, Österreich und der Schweiz. – Berlin: Walter de Gruyter, 1995. – S. 214–226.

9. Dudenredaktion. Duden. Das Herkunftswörterbuch. 5. Auflage. – Berlin: Dudenverlag, 2014. – S. 784–790.

10. Grimm J., Grimm W. Deutsches Wörterbuch. Bd. 23. – Leipzig: S. Hirzel Verlag, 1993 (Nachdruck). – S. 115–126.